

Farg'ona viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-mart oylarida, Farg'ona viloyatida jami 3 505,0 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 116,5 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Farg'ona viloyati	3 505,0	116,5
shaharlar:		
Farg'ona shahri	568,4	120,6
Qo'qon shahri	286,8	126,0
Quvasoy shahri	96,7	135,6
Marg'ilon shahri	374,3	141,2

	davomi	
	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
tumanlar:		
Oltiariq tumani	67,1	103,7
Qo'shtepa tumani	106,9	85,2
Bag'dod tumani	127,2	82,3
Buvayda tumani	106,6	119,2
Beshariq tumani	48,7	105,6
Quva tumani	86,1	101,6
Uchko'prik tumani	68,4	148,8
Rishton tumani	46,2	134,3
So'x tumani	44,0	250,2
Toshloq tumani	108,4	150,8
O'zbekiston tumani	55,4	239,0
Farg'ona tumani	47,3	76,3
Dang'ara tumani	107,0	114,5
Furqat tumani	30,7	104,8
Yozyovon tumani	52,8	149,6

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2025-yilning yanvar-mart oylarida Farg'ona viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 75,5 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 117,1 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 19,7 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 30,8 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 4,8 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 101,6 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	529,4	157,2	25,0
<i>o'sish sur'ati, %</i>	216,7	64,4	67,6
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	952,4	532,8	142,3
<i>o'sish sur'ati, %</i>	111,4	62,3	111,4
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	1 165,8	0,1	
<i>o'sish sur'ati, %</i>	100,2	-	

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-mart oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 711,6 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 192,2 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 7,9 % ga ko'payib, 20,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 46,4 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 110,2 % ni tashkil etgan holda 1 627,5 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 33,3 % ni yoki 1 165,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 100,1 % ni tashkil etdi.

Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Shahar, tumanlar kesimida korxonalar turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Farg'ona viloyati	711,6	1 627,5	1 165,9	192,2	110,2	100,1
shaharlar:						
Farg'ona shahri	116,2	375,4	76,8	189,8	105,3	143,2
Qo'qon shahri	18,0	242,7	26,1	83,5	149,2	59,5
Quvasoy shahri	1,5	81,3	13,9	-	192,6	47,2
Marg'ilon shahri	259,9	74,9	39,5	227,7	59,8	153,5
tumanlar:						
Oltiariq tumani	4,8	23,4	38,9	152,1	100,4	101,7
Qo'shtepa tumani	24,7	47,8	34,4	87,2	79,4	93,2
Bag'dod tumani	21,4	77,2	28,6	253,8	64,3	109,8
Buvayda tumani	51,7	39,3	15,6	1748,0	56,5	92,9
Beshariq tumani	2,3	10,7	35,7	149,9	81,2	113,8
Quva tumani	3,8	36,6	45,7	102,9	193,5	73,1
Uchko'prik tumani	1,6	54,5	12,3	133,2	185,7	79,2
Rishton tumani	2,0	16,3	27,9	377,1	73,6	241,0
So'x tumani	1,1	37,8	5,1	84,6	341,5	97,6
Toshloq tumani	55,1	12,4	40,9	2584,2	29,8	145,8
O'zbekiston tumani	1,5	41,5	12,4	60,0	667,6	84,5
Farg'ona tumani	19,2	18	10,1	122,7	96,9	36,1
Dang'ara tumani	2,4	93,4	11,2	8,0	194,3	72,7
Furqat tumani	1,4	13,7	15,6	37,1	148,4	95,2
Yozyovon tumani	11,3	12,9	28,6	212,8	126,2	144,6

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Toshloq tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 25,8 marta), Buvayda tumanida (17,5 marta) va Rishton tumanida (3,8 marta) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari O'zbekiston tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 6,7 marta), So'x tumanida (3,4 marta) va Dang'ara tumanida (1,9 marta) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining Farg'ona viloyat boshqarmasi statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-ion-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
L.Yefimova
73 241-98-48
